BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Asqarova Kamola G‘ayratjon qizi
Farg‘ona shahar 21-sonli IKTMTT
o‘qituvchi-defektologi.

Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim -tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo’lib hisoblahadi.

Hozirgi zamon tarbiyachisi hayotimizda yuz berayotgan o’zgarishlarning asosiy ishtirokchisi bo’lib u har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo’lgan kreativ mutaxassis, pedagogik mahorat va layoqatga ega bo’lgan, o’z ijtimoiy vazifasini yaxshi biladigan shaxs bo’lishi zarur.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o’quv metodik adabiyotlar, o’quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg’or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining direktor va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo’yicha sohaga oid bilimlar va ko’nikmalarni shakllantirish lozim.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarning qamrovi kuchaytirilmoqda.

Inson tarbiyasi insonning o‘zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma’rifatliligi va ma’naviy komilligiga erishish ishlari pedagogika fani yetakchiligida amalga oshiriladi. Demak, pedagogika fani kishiga har tomonlama tarbiya berish, har bir shaxsni hamma yosh davrlarida uyg‘un rivojlantirish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fandir. Shu bois, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo‘lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladi. Maktabgacha pedagogika esa bolaga tug‘ilganidan to yetti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va maktabgacha ta’lim sharoitida ta’lim- tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha ta’limda bola hayot haqidagi birinchi tasavvurlari shakllanadi. Atrof-olam to‘g‘risida dastlabki bilimlar bilan tanishadi.

Maktabgacha ta’limda bola faoliyatining asosiy qismi o‘yin hisoblanadi. O‘yin boladagi “men”ini namoyon bo‘lishi, uning shakllanish usulidir. O‘yin bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi bo‘lish bilan bir qatorda, hayotda mustaqil bo‘lishlarini ta’minlovchi asosiy jarayon hamdir. Maktabgacha ta’limda har bir o‘yin faoliyati tarbiyachi raxbarligi ostida olib boriladi. Demak tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. o‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish.

2. o‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat axliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

3. o‘yin jarayonida bolalarning nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish.

Shu tariqa o‘yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy faoliyatdir; o‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi; o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi nutq madaniyati va o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u mustaqil hayotga shunchalik tez moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.
2. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O ‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.
3. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.
4. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.
5. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).
6. Buzrukova, D. M. (2023). “MUHABBAT” HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(1), 178-183.
7. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(11), 239-242.
8. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of “Love” As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(5), 95-98.
9. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
10. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O ‘ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 793-797.
11. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, *1*, 318-321.
12. Askarova, D. (2022). FORMATION OF CREATIVITY AND BOOKREADERS QUALITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTION. *Science and innovation*, *1*(B8), 1039-1044.
13. Askarova, D. I. (2022). The Role Of Folk Pedagogy In The Development Of Creativity Of Students Of Higher Educational Institutions. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(02), 89-96.
14. Dilafruz, A. (2022). Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Va Oilada Gender Xususiyatlarni Shakllantirish Omillari. *Innovation In The Modern Education System*, *2*(18), 183-189.

15. Asqarova, D. I., & Mahamadaliyevna, D. Y. (2021). MUALLIM.
16. Askarova, D. I. (2022). USE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, *3*(10), 92-97.
17. Askarova, D. I., & Jabborova, M. K. (2022). The Introduction Of Gender Issues In Preschool Education On The Example Of Folk Pedagogy. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(05), 81-87.

WORDLY
KNOWLEDGE